

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

BADIYLIK VA FALSAFIY TAFAKKUR UY‘GUNLIGI

Manzura PIRNAZAROVA,

Filologiya fanlari doktori, dotsent

Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292205>

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Omon Matjon kichik hayotiy epizodlardan katta xulosa va g‘oyalar yarata bilishini she‘rlar tahlili orqali ko‘rsatilgan. Shoir ijodiga uning ilk pallaridanoq obrazli fikrlash, timsollar yaratishda zamon bilan hamnafaslikni joriy qilgani ta‘kidlangan. Epik epizodlardan falsafa, g‘oya, fikr yarata olgan ijodkor ekanligi shoirning she‘rlari tahlili orqali yoritilgan.*

Kalit sozlar: *timsol, ramz, monolog, tasvir, ijtimoiy mavzu, biografik metod.*

Аннотация. *В данной статье посредством анализа стихотворений показано, что Аман Матчан может создавать большие идеи из маленьких жизненных эпизодов. Отмечается, что образное мышление и символы, введенные в творчество поэта, гармонируют с современностью. Освещается через анализ стихотворений творческого поэта, создавшего философию, идеи, мысли из эпических эпизодов.*

Ключевые слова: *образ, символ, монолог, изображение, социальная тема, биографический метод.*

Annotation: *This article analyzes how Omon Matjon creates profound ideas and conclusions from small life episodes through the interpretation of his poems. It highlights that from the early stages of his creative journey, the poet demonstrated figurative thinking and a deep connection with his era in the creation of symbols and imagery. His ability to derive philosophy, ideas, and reflections from epic episodes is explored through the analysis of his poetry.*

Keywords: *symbol, metaphor, monologue, depiction, social themes, biographical method.*

Omon Matjon o‘z ijodida muxtara timsollarni o‘quvchi zehniga yorqin ta‘sir qilishi va shuurida qolishi uchun asosan tabiat hodisalaridan oladi.

Mumtoz timsollarni qayta ishlash va ular asosida yangi obrazlar yaratishi borasida muayyan shoir o‘z davrining adabiy an‘analariga qanday darajada amal qiladi va ularni qanday yangilaydi? Madaniy, tarixiy va ijtimoiy o‘zgarishlar klassik obrazlarning transformatsiyasiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi? Vaqt o‘tishi bilan bir xil obraz turli mualliflar asarlarida qanday o‘zgarishlarga uchraydi? kabi savollarga javob izlash zarur bo‘ladi. Bunga yechim sifatida shoir yangi obraz yaratish uchun qanday badiiy vositalardan foydalanganini ko‘rib chiqib, obrazlardagi ramziy ma‘nolarni aniqlash, mumtoz obrazlarning psixologiyadagi ildizlarini o‘rganish, muallifning hayoti va tajribasi obrazlarning shakllanishiga qanday ta‘sir qilgani haqida mulohaza yuritish zarur bo‘ladi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Omon Matjon ijodida kamdan kam ijodkorlarda timsol darajasiga chiqqan ko‘prik obrazi mavjud. Aslida ko‘prik jahon adabiyotida ham, o‘zbek mumtoz adabiyotida ham timsol sifatida yangilik emas. Xususan, tasavvufda keng tarqalgan “Majoz – haqiqat ko‘prigi” (“Al-majozu qantaratu-l-haqiqa” [Кенжабек М.3:48]) g‘oyasining o‘zida ko‘prik naqadar keng ma‘noga ega timsol ekani aks etib turibdi. Omon Matjon ijodida kamalak o‘ziga xos bir tasvir vositasiga aylanadi: zaminga oshiq falakning unga tomon solgan yo‘li, intilishlari aksi, visol uchun kurash vositasi, muhabbat yo‘lida jahd qilish namunasi ifodasi sifatida zuhur etadi.

Falak yerga oshiq bo‘ldi –

kamalaktan ko‘prik qurdi! [Omon Matjon, 7:30]

Tilimizda *kamalak*, *qavs quzah*, *ranginkamon*, *Hasan-Husan o‘q-yoyi* kabi so‘zlar bilan ifodalangan tabiatning bu mo‘jizasi nomlarida aks etgandek, asosan, kamonga qiyoslangan. Shu bilan birga Ogahiy kabi mumtoz adiblarimiz tilida uning kemaga, qayiqqa qiyoslanishi ham bor. Misol tariqasida xonning Amudaryoda kemada sayr qilishi kamalakning falakni tutishiga qiyoslanadi:

Shahriyorimdurmu, *zavraqda* qilur Jayhunni sayr

Yo quyosh *qavsi quzah* ichra qilur gardunni sayr [Ogahiy, 5:149].

Alisher Navoiy ijodida esa kamalikka yana ham teranroq nigoh tashlanadi. Daho dunyoqarashidagi dunyo (charx) yomonlikdan boshqa narsa ko‘zlamaydigan bir vafosiz kelinchakki, uni aqd qilish (nikohga olish)ga ahd qila ko‘rma, chunki u nihoyatda go‘zal, lekin yomon amallar sohibasidir. Kamalaktan o‘sma, gulrang shafaqdan g‘oza (upa) qilib olib, zulfi (sochi) tun bo‘lsa, yuzi kun bo‘lib ko‘rinadigan ajab bir makkoradir:

Charx arusig‘a yo‘q g‘ayri yamonliq shior,

Aqdig‘a mayl etmakim, shohid-u badkoradur.

Vo‘smasi *qavsi quzah*, g‘ozasi gulgun shafaq,

Zulf-u yuzi tun-u kun, ko‘rki, ne makkoradur [Alisher Navoiy, 1:132].

Shoir ijodida kamalak va ko‘prik juftligi birga yashaydi. Omon Matjon – ayol vasfiga eng munosib tashbihlarni tabiatdan axtargan va bir inson topgancha topa olgan shoir. Jumladan, ayol uchun eng muhim zarur fazilatlardan biri, uning bor vujudi qo‘rg‘oni bo‘lmish iffatga ham kamalakni tashbih qilib, u ayol san‘atkorligi bilan osmon va yer o‘rtasida solingan durdona ko‘prik deydi:

(Alisher Navoiy) Ayol go‘zalligini tabiatning timsoli,

Balki, tabiatning o‘zi, tiriklikning tabiati, deydi!

Ayol go‘zalligi barqdek, yildirimdek,

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Ruh yo‘lini g‘uborlardan tozalar!

Mehri – turp suvidek dillardagi toshlarni eritur!

Iffati, kamalakdek,

Osmon va yer o‘rtasiga *dur ko‘prik* yasar! [Omon Matjon, 6:44]

Ko‘prik o‘ziga xos bir ezgulik vositasi sifatida shuuriga singdirgan shoir bir she’rida “oq tumanlar aro ufqda qotib qolgan isyonlar timsoli bo‘lgan adil va yangroq, umri dunyo umriga savol bir tog‘”ni

Hislar oqib yotgan samoda,

U ko‘prikdek turar yuksalib [Omon Matjon, 8:44] –

deb ta’riflaydi.

Omon Matjon ijodida ko‘prik – keng ko‘lamli timsol. U vujudiga inayotgan ilhom, qalbida tug‘yon urayotgan o‘ylar, borlig‘ini tutgan dardni ham “Sharq ufqidan bir shu’la”ning oltin ko‘prigi deb biladi. Albatta, bu “oltin ko‘prik” nafaqat “Nega men?” dostoni, balki butun ijodiga xos holat edi:

Ufq ikkilangan payt,

qirlar osha

Tushgan bu ne nurdir, undab falakka?

Lol edim.

Birdan shu oltin ko‘prikning

Bir tutam shu’lasi tushdi yurakka [Omon Matjon, 7:346]

Omon Matjon hayotida farahbaxsh onlardan birini “nurli ko‘prik”ka chiqishga qiyoslashi bejiz emas:

Esimda, bir dasta ko‘chat qo‘ltiqlab,

Bahor bozoridan chiqarkanman shod,

Go‘yo kelajagim quchoqda edi,

Ul nurli ko‘prikka chiqqandek ozod! [Omon Matjon, 7:356]

Odam bir kun

G‘o‘la ixtiro etdi.

Teshik topdi o‘ylab,

O‘q ham berkitdi.

Yana nelarnidir

Topib u arang,

Arava kashf etdi.

Kashf etib,

qarang,

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

O‘z yo‘liga yana

Piyoda ketdi [Omon Matjon, 8:19]

Bu she‘r 1968-yilda yozilgan. Sanani eslatayotganimiz sababi yigirma besh yashar muallif ushbu satrlar silsilasida olamshumul muammolarni ko‘targani, ularning qatiga insoniyat taqdiridan xavotir hissini joylab va o‘zgalarga yuqtira olganidan ajablanishdir. Ikkinchi tomondan qaraganda, bundan ajablanmasa ham bo‘ladi. Chunki Alisher Navoiy ham Sayyid Hasan Ardasherga yozgan maktubida jahoniy muammolardan so‘z ochganda yigirma besh yoshida edi. Nazarimizda, shoir qo‘liga qalam tutqazgan narsa o‘z ishlaridan o‘zi ajabtovur ahvolga tushib qolgan inson holidan xavotir hissi edi. Chunki yigirmanchi asr o‘rtalariga kelib inson o‘zi yaratgan ofatlar oldida ojiz qolib, ixtiro qilgan aravasi ham qolib, yana piyoda ketish, ya‘ni omon qolsa, o‘z hayotini qayta boshlash xavfi ostida ekani ma‘lum bo‘lib qoldi. Bu holatni keyinchalik – 1973-yilda Erkin Vohidov “Inson” qasidasida quyidagicha ifodalagan edi:

Zarrani ijod etib,

Dahshat balo bunyod etib,

Oqibatni yod etib

Hayron o‘zing, hayron o‘zing [Vohidov E.2:82].

Shoir o‘z falsafiy qarashlarini, o‘z ijtimoiy-siyosiy mavqeyini aksar hollarda tabiat va tarix bag‘riga joylashga intiladi. Inson o‘z shuuridagi kechinmalarni oshkor ifodalash va anglatish imkoni bo‘lmagan zamin va zamonda haqiqiy hissiyotini tabiat va tarix fonida aks ettirish shoirlarning o‘ziga xos yo‘sin va tarziga aylangan edi. Omon Matjon o‘z ijodining ibtidosidan buni anglashga va shu yo‘sinda ijod qilishga majbur bo‘lgan edi. Buning yaqqol misolini “Afrosiyob” she‘rida ham kuzatish mumkin:

Yig‘lab turdim qoshingda,

Ne savdolar boshingda,

Ko‘z yoshi bor toshingda,

Afrosiyob, Afrosiyob! [Omon Matjon, 8:20]

Eng avvalo, e‘tiborni tortadigan jihat she‘r “Devonu lug‘otit-turk”dagi Alp Er To‘nga – Afrosiyob marsiyasi ohangida yaratilgan. Keyingi satrlarda ko‘z oldimizda Samarqandda Afrosiyob yodgorligi majmuasida ziyorat mahzun va o‘ychan nigohli talaba yigit birdaniga yovqur ajdodlarni qo‘msagan, erkparvar bir bahodirga aylanadi:

Seni ko‘mib ketdilar,

Yer bilan teng etdilar,

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Shuhratingni netdilar,

Afrosiyob, Afrosiyob?! [Omon Matjon, 8:20]

Shoir taqdir taqozosi bilanmi, o‘z o‘tmishdoshlariga munosib vorislik qila olmaganlik balosidanmi, nima bo‘lishidan qat’i nazar qullik domiga tushgan butun yurtni Afrosiyob siymosiga jamlaydi. Yer bilan tenglik Afrosiyob shaxsigina emas, afrosiyoblar taqdiriga tegishli edi. Bir qarashda 1967-yilda yozilgan bu she’rda istiqlolparvarlik, mustaqillik g‘oyalarini axtarish to‘g‘ri emasdek tuyuladi. Chunki Omon Matjon 1986-yilda ham “zamon bir Leninga qaytishi”ni tarannum etgan shoir edi-da. Lekin she’rning keyingi satrlari qatida ma’no fikrimizdan qaytmasligimizga, she’rda chindan ham ajdodlar ruhi oldida mulzamlilik hissi borligiga amin bo‘lamiz:

Men dedim: davringa boq,

Dedi: men mangu uyg‘oq,

Sen osmon-u men tuproq,

Afrosiyob, Afrosiyob! [Omon Matjon, 8:20]

Shoirning Afrosiyobga xitoban “Sen osmon-u men tuproq” – deb murojaat qilishi o‘tmish va bugun o‘rtasidagi qutb, qator qarama qarshiliklarning umumiy chizgisi edi. Shoirning ko‘p o‘tmay (1979-yilda)

Men she’rimda aytdim, tuprog‘imizning

Tarixida turfa tonglar otganin.

Talash-u tortishlar zadalab, ko‘p vaqt

Haqiqiy bir ega kutib yotganin [Omon Matjon, 8:255].

kabi satrlar bitgani fikrimizning naqadar asosli ekanini ko‘rsatadi. Tarixdan saboq olish, o‘z tarixini bor bo‘yi bilan ko‘rish, uning nurli sahifalaridan bahra, chirkin sahifalaridan tanbeh olish shoir uchun yoshlikdan hayotiy mezonlaridan biriga aylangan edi. U ijodining ilk pallalarida yozgan “Mezon” she’rida aytganidek, “Davra aylanganda o‘tmishidan ham Tongan tarixchiga esiz, ming esiz” [Omon Matjon, 8:12].

“Epiklik Omon Matjon ijodining yetakchi xususiyati bo‘lib, hatto uning sof lirik she’rlarida ham bu bo‘rtib ko‘zga tashlanadi” [Suvon M. 9:279]. Omon Matjon muhim falsafiy qarashlari, ijtimoiy-siyosiy fikrlari bayonida ham epiklikdan unumli foydalanadi. Uning hatto ikki banddan iborat quyidagi she’rida ham ma’lum holat, muayyan manzara chizish orqali falsafiy g‘oya bayon qilinadi. Ko‘z oldimizda g‘am va xurramlik nisbatidan bir posangisi juda pastga tushib, bir pallasi juda yuqoriga chiqib ketgan ulkan va mahobatli tarozu gavdalanadi. Shu manzaraga uyg‘un ravishda baxti balandligidan, ya’ni baxt joylashgan posangi balandga chiqib ketgani

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

sababli unga bo‘ynini cho‘zib hayrat bilan tikilgan va unga yetishga intilgan inson qiyofasi shuurimizda paydo bo‘ladi.

Agar ko‘hna yerning qayg‘u, kulgusin
Ajrati tortsalar bir tarozuda,
G‘ami pastga bosib tushardi uning,
Baxti baland chiqib ketardi juda.
Balki shundanmikin, boshga tushgan dam
Insonning ko‘nglini cho‘ktirar qayg‘u
Va baland baxtining ko‘yida shundan
Tinmay yuksaklarga intilarmi u?!

She‘r 1966-yilda yozilgan. U har tomonda sovet fuqarolarining baxtiyor hayoti vasfidagi nazmiy bitiklar yaralayotgan, jamiyatning baxtsizligi haqida gapirishning o‘zi baxtsizliklarga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir davrda yaratilgan. Shuning uchun shoir mulohazakor yo‘l tutadi: “ko‘hna yer”ning qayg‘u-hasrati haqida gap ochadi. Bu bilan shoir o‘z salaflari kabi ko‘hna masalani yangi bayonini beradi. Bu borada Alisher Navoiy

Dahr bo‘stoni aro barqu bulutdin anglakim,
Yig‘lamoq yuz qatladur bir qatla kulgu o‘rnida [Alisher Navoiy 1:59].
–degan bo‘lsa, Ogahiy
Komig‘a yetkan kishi tong yo‘q jahondin topmasang,
Kim bu olam, Ogahiy, bir ko‘hna hasratxonadur [Ogahiy 4:103]–
deydi.

E‘tibor qaratsak, inson hayotidagi yig‘i va kulgu nisbatini Alisher Navoiy ham qiyos asosida ochib bergan, ya‘ni hamma vaqt ham yomg‘ir chaqmoq bilan bo‘lavermagani kabi har doim ham yig‘i va kulgu nisbati bir-biriga teng emas, hatto yuzga bir hisobida deyish mumkin.

Omon Matjonning 1967-yilda yaratgan “Imkon haqida” she‘rida ham shoir epik tasvirdan g‘oyat mohirona foydalanadi. Shoir rangin so‘zlar vositasida chizgan manzarada dastlab tirqishdan tomchilab turgan chakki, uning tobora kengayib o‘pqonga aylanishi, shu o‘pqon sabab buzilgan to‘g‘on hamda quyosh nuri bazo‘r tushib turgan yana bir tirqish shakllanadi. Tasvir va timsollarga boy bu kichik she‘rda yaratuvchanlik fazilatiga ega suvning vayronagarchilik xislati ochib beriladi. Hajman kichik she‘rda suv va nur qarama-qarshiligi ochib berilishiga ham erishilgan. Demak, biz bu o‘rinda suv “o‘ziga yo‘l bergan” joyni o‘ziniki qilib olishga qodirlar timsoli tarzida namoyon bo‘ladi. Demakki, inson qalbiga biror qabohat birdaniga emas, suv

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

tomchisiday qatrama-qatra kirib keladi. Uning oldini olish uchun butkul qutulish, arziyas narsa sifatida qarash aslo mumkin emas. Shoir chizgan manzara orqali qabohat qalbni qay yo‘sin kemirishini tasavvur qilamiz:

Tirqish tirqish edi avvalosiga,
Undan bir-bir tomib turar edi suv.
Qoyil qoldi tirqish suv dahosiga –
Teshikka aylandi, suv oqdi “zuv-zuv”.
Selmidi yo ko‘lmak, lekin o‘ziga
Yo‘l bergan teshikni ayladi o‘pqon.
Dahshat solib keldi vodiy ustiga,
Tirqishdan buzilib ketdi bir to‘g‘on [Omon Matjon, 8:27].

To‘g‘on – inson vujudi, irodasi. Inson o‘z vujudiga qatrama-qatra kirib kelayotgan g‘ayri insoniy o‘ylar, garchi ular o‘ta ahamiyatsiz, o‘ta arziyas tuyulsa ham ehtiyot bo‘lmog‘i lozim. Biz e‘tibor bermay kelayotgan yaqinlarimizning maishiy muammosi aslida shoir chizib bergan tirqishdagi suv kabidir. Bu kabi e‘tiborsizlik pirovardida qalbimizni butkul zabt etadi, vujudimizni, irodamizni to‘g‘on buzilgandek kamida beparvolik degan qabohat zabt etadi. Qabohat o‘z o‘rnini axtarib qanchalik intilsa, ezgulik shu qadar sokin va vazmin. Uning bir vujudni egallashi oson emas. Buning uchun unga yo‘lni o‘zimiz ochib berishimiz zarur. Qabohat yo‘llarini yopmagan yoki yopa olmagan qalb sohibining ezgulik nurlariga yo‘l ochib berishi, uning yo‘lini tirqish emas keng va ravon shohroh qilib qo‘yishi oson kechmaydi, albatta:

Bu shunday! Boshqa bir tirqishdan ammo,
Bazo‘r o‘tib turar quyoshdan ziyo [Omon Matjon, 8:27].

Ayniqsa, she‘rning keyingi misralari mumtoz adabiyotimizda nafs xususida bildirilgan muhim didaktikaga boy baytlarga qiyos qilgudek zalvorli fikrlar uqtirishga qodir. Haqiqatan, ruhiyatiga ezgulik kirib kelishi, vujudini insoniy hislar qoplashini istagan har kim qalbiga tirqishdan tushgan ziyodek taralib turgan nurga keng yo‘l ochib berishi shart. Bu ziyo suv kabi tomchilab-tomchilab, bir kun o‘pqon hosil qilib kirib kelmaydi, borligini anglatgani uchun, ignadek bir tuynukdan bo‘lsa ham yog‘du sohib o‘zini anglatgani uchun minnatdor bo‘lgan holda unga qalb sohibining o‘zi yo‘l ochishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1987.
2. Vohidov E. O‘zbekim. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Кенжабек Мирзо. Ёшларга дил сўзларим. – Тошкент: Adabiyot, 2021.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

4. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд: Девон. Нашрга тайёрловчилар Д.Ғойипов, С.Сариев, Б.Умрзоқов. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014.
5. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 3-жилд. Зубдату-т-таворих (Тарихлар сараси). Нашрга тайёрловчи Нурбой Жабборов. – Тошкент: Sharq, 2019.
6. Омон Матжон. Эркин ҳаволарда. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1997.
7. Омон Матжон. Иймон ёғдуси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1995.
8. Омон Матжон. Сени яхши кўраман. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1981.
9. Сувон Мели. Сўзу сўз. – Тошкент: Sharq, 2020.